

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№5

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 409 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-mayda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

“Zavur kollektor suvlarining kimyoviy tarkibi tahlili va ularni tozalash zarurati (Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida)”.....	20
Kungiratbay Sharipov, Ma‘ruf Nurmanov	
Forming demand and stimulating sales in Uzbekistan.....	26
Musayeva Shoirazimovna	
Членство в ВТО как драйвер развития: взгляд Узбекистана через призму опыта Вьетнама и Казахстана.....	30
Ж.Я.Нуриллаев	
Mamlakatimizda tizimli ahamiyatga molik banklarni aniqlash tartibi va ularning bank tizimi moliyaviy barqarorligiga ta'siri tahlili.....	37
Xolmamatov Farhodjon Kubaevich	
O'zbekiston respublikasida aholi bandligini ta'minlashdagi dolzarb masalalar	44
Ibragimov Elmurod Gulboynor o'g'li	
O'zbekiston respublikasida elektr energiyasi ta'minoti hajmini yalpi ichki mahsulot hajmiga ta'sirini ekonometrik tahlil qilish	48
Fayziyev Rabim Alikulovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarining xizmat turlarini takomillashtirish amaliyoti	60
Umurzoqova Adiba Ochilovna	
Qishloq xo'jaligi kooperativi boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobini tashkil qilishning o'ziga xos xususiyatlari	67
Abduraxmanov Ramazon Abdullayevich	
O'zbekistonda qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmini prognozlashda ekonometrik modellar (yillik)	72
Qodirov Farxod Amirovich, Bo'riyeva Qundiz Muratbaevna	
Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi tizimini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlari.....	77
Mahamatova Maftuna	
Xufiyona va yashirin iqtisodiyotning amaliy tahlili o'zbekiston miqyosida.....	83
Koshanov Abdimurat Azat uli	
Soliq tizimini barqarorligini belgilovchi omillar tahlili.....	87
Nurillayev Jasurbek Davronbekovich	
Mahalliy budjetlar daromad manbalarini mustahkamlash omillari.....	92
Soatova Nodira Boboxanovna	
Bank infratuzilmasining raqamli transformatsiyasi va resurslar bazasi shakllanishi: nazariy asoslar va texnologik yondashuvlar.....	97
Raxmatov Azizjon Jaloliddinovich, Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
Ichki auditning transformatsion potentsiali: tahliliy amallarni takomillashtirish orqali samaradorlikni oshirish.....	102
Misirov Akbarali Pardaboyevich, Ismoilov Asadbek Abdusamat o'g'li	
Xorijiy mamlakatlarda yashil moliyalashtirishni rivojlantirish yo'llari.....	110
Qorriyeva Shahnoza Safarbayevna	
Yashil moliya – iqtisodiy rivojlanish mexanizmi sifatida	117
Nodir Xidirov G'iyosaliyevich	
Xo'jalik yurituvchi subyektlarning likvidliligi va moliyaviy barqarorligini ta'minlashning xorij tajribasi va uning amaliy ahamiyati	122
Bauyetdinov M.J.	
Теоретические подходы к определениям агрессии социально - экономической и политической стабильности государства как фактор повышения рекреационных потребностей	128
Алимова Райхона Баходировна	
Innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida talabalarning metodik tayyorgarligini shakllantirish.....	139
Komilov Umidjon Normurod o'g'li, Tulyaganova Gulnoza Olimjon qizi	



Kichik biznes subyektlarini moliyalashtirish manbalari	143
Nematulloyev Suxrob Sobirovich	
Bir qatlamli elastik asosda joylashgan to'sinning seysmik kuchlar ta'siridagi tebranishining V.Z. Vlasov usuli asosida analitik tadqiqi	148
Kamola Xaydarova	
"Sibir daryolarining burilishi" loyihasining tarixiy va retrospektiv tahlili	153
Mahmudov Nosir Mahmudovich	
Sarguzasht turizmini rivojlanishi va sarguzasht turlarda turistlarning xavfsizligini ta'minlashda instruktor-gidlarning roli	159
Tilovmurodov Dostonbek Furqat o'g'li	
Scientific-theoretical foundations of the use of ict in ensuring management efficiency and security in enterprises	165
Khalilov Bekzod Akhmatovich	
Tijorat banklarida kredit riskini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish yo'nalishlari.....	171
Mirtursunova Dinara Anvarovna	
O'zbekiston respublikasi tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini joriy etishni takomillashtirish yo'llari.....	175
Tangriyev Izzat Raxmatullayevich	
Qashqadaryo viloyatida eko va etno turizmni rivojlantirishning istiqbollari va iqtisodiy samaradorligi.....	181
Erkayeva Barno, Xushvaqto'v Ramziddin	
O'zbekiston bank tizimida raqamli valyutalar va yashil investitsiyalar integratsiyasini takomillashtirish	186
Nodirov Azizxon Asrorovich	
Global energiya noaniqligining o'zgaruvchanligi ekonomertik modellari	192
Bexzod Qo'ziboev	
Экоцифра: цифровизация МСП для зеленого устойчивого роста	197
С.С. Убаева	
Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish va ekologik toza hududni yo'lga qo'yishning ahamiyati	201
Ergashov Ulug'bek Zoxidjonovich	
Statistika fanining shakllanish bosqichlari va rivojlanish tendensiyalari	206
Nabixodjaev Abbas Abdupattahovich, Umarova Mukaddas Abbasovna	
Hududlarning atmosferaga chiqaradigan zararli chiqindilar miqdorini sanoat mahsulotiga nisbati bo'yicha tahlili	210
Baqoyev Husan Nuriddinovich	
Qayta tiklanadigan vodorod narxlari strategiyasini o'rganish: xarajat noaniqliklarini bartaraf etish	216
Nuraliyeva Komila Sanakulovna	
Qishloq xo'jaligini «yashil» iqtisodiyot asosida rivojlantirishga o'tishning zarurligi va mohiyati	221
Yoldoshev Mutalib Ibrohimovich	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda "yashil investitsiyalar" dan foydalanishning xorij tajribalari	225
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna, Rustamova Nasiba Arslanovna	
Ijtimoiy iqtisodiy ehtiyojlar va ularning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni.....	230
Raxmonova Feruza Musaqulovna	
Oliy ta'lim xizmatlarini ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda tutgan o'rni.....	234
Mirzaxajeva Shaxzoda Shuxratovna	
Tijorat banklari muammoli kreditlarining likvidlikka ta'siri.....	240
Karshiyev Adham Anvarovich	
Kichik firmalarning raqobatbardoshligini oshirishning nazariy metodologik jihatlar.....	245
Ruzmetov Davron Ibrogimovich, Aliyev Maqsudbek Erkinovich	
Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatlari.....	251
Talapova Nargiza Baxriddinovna	



“Deviant xulq-atvorli o‘smirlarning ijtimoiy moslashuvining psixologik xususiyatlari”	255
Saidbekova Feruza Anvarbek qizi	
Aholi daromadlarini diversifikatsiya qilishda davlat siyosatining roli va imkoniyatlari	258
Nutfullayev Shohrux Mexli o‘g‘li, Qurbanov Ulug‘bek Erkinovich	
Анализ показателей развития зелёной химии по всему миру и в узбекистане за последние десять лет	262
Фозилова Фирангиза Комиловна	
Tijorat banklarining o‘zbekiston respublikasi iqtisodiyotiga ta’siri	270
Masharipov Rasulbek Jo‘rabekovich	
Biznes birlashuvda buxgalteriya hisobi va auditni takomillashtirish yo‘nalishlari	273
Hamroyeva Zuhra Amiral qizi, Xayitboyeva Laylo Oybekovna, Mirzarayimov Sardorbek Ravshanovich	
O‘zbekiston respublikasida pul-kredit siyosatining maqsadi	277
Adilov Zuxriddin Marip o‘g‘li	
Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining ishlab chiqarish va bozorlararo aloqalarining statistik o‘zgarish tendensiyalari	281
Zakirova Umida Maxamadaminovna	
Iqtisodiy bilimlarni shakllanishi va rivojlanishi	286
Po‘latov Abdulloh Xolxo‘jayevich	
Теоретические основы эффективного управления финансовыми ресурсами предприятий с государственной долей (на примере узбекистана)	291
Ахмедов Дилшод Турсункулович	
Robototexnika asoslari va maktab ta’limida qo‘llanilishi	298
Tuxliyev Muslimbek Sherzod o‘g‘li	
Sun‘iy intellektlar yordamida o‘quvchilarni hayotiy faoliyat ko‘nikmasini shakllantirishi	303
Mirxasilova Zulfiya Kochkarovna, Abdurahmanova Ozoda Djo‘rayevna, Kurbanov Azimjon Jo‘raboy o‘g‘li	
Levi tengsizligi uchun A.N. Kolmogorov teoremlari	316
Saypiddinov Shukrullo Sadrdinovich, Baxramov Rustamjon Qambarali o‘g‘li	
Rivojlanayotgan mamlakatlar bank tizimida raqamli moliyaviy texnologiyalarni joriy etish afzalliklari	320
Xodjimamedov Akmal Ashurovich, Umedov Abdullo Umedovich	
O‘zbekiston respublikasining mdh mamlakatlari bilan tashqi savdo faoliyati tahlili: o‘zgarish tendensiyalari va istiqbollari	326
Ilyosov Asrorjon Axrorjon o‘g‘li, Abdullaev Alisher Maxmudovich, Tuxtasinova Muxayyo Mirzasultonovna	
Elektron tijoratni rivojlantirishning xorij tajribasi	330
Madieva Zuxra Iskandarbekovna	
Inson resurslarini o‘rganishning asosiy yondashuvlari: mohiyat-ta’rifiy tahlil	336
Bakirov Qobiljon Mamatyusupovich	
Bandlikni ta’minlashda davlat tomonidan institutsional muhit yaratishning roli	340
Dilorom Tojiboyeva, Umida Ravshanovna Anvarova	
Mamlakatimizda islom moliyasini rivojlantirish maqsad va choralari	346
Xoliyov Xomid Boynazarovich	
Разработка экспертной системы для оценки финансового состояния предприятия	352
Tajibayeva Kizlargul Ajiniyazovna	
Farg‘ona vodiysi viloyatlarida kichik biznes ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi: panel regressiya tahlili	362
Tojiyeva Muhabbatxon Mansurjon qizi	
O‘zbekiston Respublikasida makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni hisoblashdagi asosiy muammolar va ularning yechimlari	368
Farmonov Ilhomjon Iqboljon o‘g‘li	
Xorijiy tajriba asosida korxonalar innovatsion faolligini boshqarishni takomillashtirish	374
Hakimova Nozimaxon Sobirjon qizi	
Mahalliy davlat hokimiyati organlarida milliy kadrlar zaxirasini shakllantirish	380
G‘aniev Elyor Sobirjonovich	
O‘zbekistonda sirkulyar iqtisodiyotga o‘tishning ahamiyati	386
Mirzayev Muzaffar Maxmudovich	



The role of international investments in greening and ecological rehabilitation of the aral sea region	392
Ospanova Feruza Bazarbaevna	
“Зеленое направление” совершенствования бухгалтерского учета	397
Ибрагимов Гайратжон Артикович	
Xarajatlarni kelib chiqish joylari va javobgarlik markazlari bo'yicha hisobga olishni takomillashtirish	403
Xamidova S.Ya.	



XARAJATLARNI KELIB CHIQISH JOYLARI VA JAVOBGARLIK MARKAZLARI BO'YICHA HISOBGA OLISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Xamidova S.Ya.

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti
"Tarmoqlar iqtisodiyoti" kafedrası professori v.b.

Annotatsiya: Mazkur maqolada innovatsion iqtisodiyot sharoitida ishlab chiqarish zahiralardan oqilona foydalanishni ta'minlash maqsadida xarajatlarni kelib chiqish joylari va javobgarlik markazlari bo'yicha hisobga olish tizimini tashkil etish va uni takomillashtirish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: xarajatlarning "joyi" va "markazi", xarajatlar guruhi, javobgarlik markazi, ichki korporativ boshqaruv, "erkinlik darajasi", biznes segmenti, segmentar hisobot.

Abstract: This article explores the organization and improvement of cost accounting based on cost origin points and responsibility centers in the context of an innovative economy, aiming to ensure the rational use of production resources.

Key words: cost "place" and "center", cost group, responsibility center, internal corporate governance, degree of.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы организации и совершенствования учета затрат по местам возникновения и центрам ответственности в условиях инновационной экономики с целью рационального использования производственных ресурсов.

Ключевые слова: место и центр возникновения затрат, группы затрат, центр ответственности, внутреннее корпоративное управление, степень свободы, бизнес-сегмент, сегментарная отчетность.

KIRISH

Mamlakatimizning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi jarayonida raqobat muhitining keskin kuchayib borayotgani korxonalar o'rtasida tijorat siri qoidalariga qat'iy amal qilishni zaruriyatga aylantirmoqda. Shu munosabat bilan buxgalteriya hisobi va iqtisodiy tahlilni ikki darajada yuritish maqsadga muvofiq sanaladi. Agar tashqi foydalanuvchilar manfaatlarini ko'zda tutgan holda moliyaviy hisob va tahlil tashkil etilsa, ichki foydalanuvchilar uchun boshqaruv hisobi va tahlili mo'ljallanadi. Bu esa korporativ boshqaruv tizimida tijorat siri bilan bog'liq axborotni samarali boshqarish imkonini yaratadi.

Hozirgi islohotlar sharoitida korxonalar o'zlarining barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun ta'sirchan va oqilona boshqaruv qarorlarini qabul qilishi obyektiv zaruratga aylanmoqda. Aynan shunday holatda buxgalteriya hisobi o'zining beqiyos ahamiyatini namoyon qiladi. Buxgalteriya hisobi nafaqat xarajatlarni daromadlar bilan qiyoslash, balki korxonalarning operatsion, investitsion va moliyaviy faoliyatlari doirasida har bir sarflangan resursdan samarali foydalanishni tahlil qilish imkonini beradi.

Bugungi kunda buxgalteriya hisobini zamon talablari asosida tashkil etish, mahsulot tannarxini aniq hisoblab chiqish hamda ishlab chiqarish xarajatlari hisobi tizimini takomillashtirish bozor iqtisodiyotining muhim talablaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

Mustaqillik yillarida olib borilgan islohotlar natijasida O'zbekistonda iqtisodiy rivojlanish jarayoni yangi bosqichga ko'tarildi. Bu esa, o'z navbatida, iqtisodiy boshqaruv, xususan, xarajatlar hisobi va tahlili sohasida ham tub o'zgarishlarni amalga oshirish zaruratini yuzaga keltirdi. Ayniqsa, milliy ishlab chiqarishni shakllantirish va rivojlantirish, xarajatlarni maqbullashtirish, mahsulot tannarxini pasaytirish hamda bu jarayonlarning samaradorligini tahlil qilish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasida don mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalarda ishlab chiqarish xarajatlari hisobini boshqaruv tamoyillari asosida tashkil etish va takomillashtirish bo'yicha qator amaliy chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Bu boradagi asosiy maqsad xo'jalik yurituvchi subyektlar operatsion faoliyatining samaradorligini oshirish va hisob tizimini xalqaro standartlarga mos ravishda joriy etishga erishishdan iboratdir.



Don mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida ishlab chiqarish jarayonlari yopiq texnologik sharoitda olib borilishi sababli ishlab chiqarish zahiralardan oqilona foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa, asbob-uskunalar, texnologik qurilmalar hamda tovar-moddiy zahiralardan samarali foydalanishni ta'minlash uchun javobgarlikni aniq belgilash va tegishli tarzda hisob yuritishni talab etadi.

Zahiralarni boshqarish, ularning iste'molini nazorat qilish va ulardan samarali foydalanish uchun korxona tarkibidagi boshqaruv xodimlari, mutaxassislar, ustalar va ishchilarning funksional lavozimlari aniq belgilanib, ularning xizmat vazifalariga kiritilishi lozim. Javobgarlikni aniqlashtirish – obyektiv zarurat bo'lib, bu faqatgina xizmat ko'rsatish sohalari, ishlab chiqarish birliklari, xarajat markazlari va ularning joylashuvlari bo'yicha tegishli xodimlarga bog'liq xarajatlar to'g'risidagi to'liq va aniq ma'lumot mavjud bo'lgan taqdirdagina amalga oshiriladi.

Xarajat markazlari ham korxonada xarajatlar hisobi uchun muhim obyekt hisoblanib, odatda birlamchi ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish bo'linmalaridan iborat bo'ladi. Ular funksiyalari, ishlab chiqarish jarayonlarining bir xilligi, texnik jihozlanganlik darajasi va mehnatni tashkil etish usuli bilan farqlanadi.

Xarajatlarning "joyi" va "markazi" tushunchalari buxgalteriya amaliyotida o'zaro ekvivalent bo'lmaydi. Buxgalteriya nazariyasida ushbu tushunchalarning chegaralari va aniq ta'riflari hozirgi kunda qat'iy belgilab qo'yilmagan. Umumiy qabul qilingan yondashuvga ko'ra, xarajatlar markazi ishlab chiqarish sektorida yuzaga keladigan birlamchi xarajatlar markazlarining yig'indisi sifatida qoraladi.

Agar xarajatlarni aniq va batafsil aniqlash imkoni bo'lmasa yoki bu amaliy jihatdan qiyinchilik tug'dirsa, "xarajatlar joyi" va "xarajatlar markazi" tushunchalari funksional jihatdan bir-biriga yaqinlashishi yoki mos kelishi mumkin.

Xarajatlarni detallashtirish, ya'ni ularni aniqroq tasniflash va aniqlash, boshqaruv tizimida xarajatlar ustidan nazoratni kuchaytirish va hisob-kitoblarning ishonchligini oshirish maqsadida amalga oshiriladi. Xarajatlar markazi buxgalteriya hisobi obyekti sifatida nafaqat xarajatlarni guruhlash, tizimli nazorat qilish va tahlil etish, balki boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur bo'lgan boshqa funksiyalarni ham bajaradi. Shu bilan birga, xarajatlar markazlari asosida yuqori darajadagi analitik hisob tizimini shakllantirish imkoniyati mavjud.

Umumiy nuqtai nazardan, xarajatlar markazlari xarajatlar paydo bo'ladigan joylar sifatida xizmat qilsa-da, bu obyektlar guruhlash maqsadlari, tasnif belgilari hamda ularning xususiyatlariga ko'ra "xarajatlar joyi" tushunchasidan farq qiladi. Bu esa, buxgalteriya hisobining aniq tashkil etilishi va samarali boshqaruv tahlilini amalga oshirishda mazkur ikki tushunchaning mohiyatini to'g'ri anglashni taqozo etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xarajatlar hisobi va boshqaruv tahlili masalalari bilan A.F. Aksyonenko, M.I. Bakanov, M.A.Vaxrushina, A.N. Kashaev, A.D.Sheremet, K. Druri, D. Vilyamson, Ch.T. Xongren, Dj. Foster, R.Entoni, Dj. Ris va boshqalarlar shug'ullanishgan. Bu borada mamlakatimiz olimlaridan A.Karimov, B.Xasanov, M.Pardaev, T.Shagiyasov, B.Isroilov, A.Ibragimov, M.Raximov, Z.Sagdillaeva, I.Choriev, N.Kalandarovalar o'zlarining ilmiy tadqiqotlarida javobgarlik markazlari tomonidan xarajatlarni hisobga olish va tahlil qilishni takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratganlar.

Javobgarlik markazlari tomonidan xarajatlarni hisobga olish g'oyasi ichki korporativ boshqaruvni takomillashtirish zaruratidan kelib chiqqan. Javobgarlik markazlari tomonidan buxgalteriya hisobi - javobgarlik markaziga kirish va chiqishda rejalashtirilgan va haqiqiy ma'lumotlarni aks ettirish, qayta ishlash va monitoring qilish tizimidir. Ushbu tizimning asosiy konsepsiyasi xarajatlar markazi konsepsiyasidir. Xarajat markazi – ma'lum turdagi aktivlarni sotib olish (kirish) va ishlab chiqarish xarajatlari bo'yicha ma'lumotlarni jamlash lozim bo'lgan korxona bo'linmasidir. Ko'pincha quyi darajadagi tarkibiy bo'linmalar - jamoa, ishlab chiqarish maydonchasi, ustaxona - xarajatlar markazlari sifatida ishlaydi. Javobgarlik markazlari tomonidan xarajatlarni hisobga olish tizimining eng muhim xarakterli xususiyati shundaki, har bir alohida rahbarning faoliyati u javobgar bo'lgan sohada erishilgan natijalar bilan baholanadi. Masalan, ustaxona rahbari korxona direktorining ish haqini belgilay olmaydi, shuning uchun tegishli xarajatlarning bir qismi uning ustaxonasiga tegishli emas. Javobgarlik markazlari tomonidan xarajatlarni hisobga olish tizimining ishlashi nazorat qilinadigan va boshqarilmaydigan xarajatlar prinsipiga asoslanadi.

Xarajatlar markazi deganda, boshqaruv funksiyalarini samarali bajarishga imkon beruvchi xarajatlarning batafsil guruhlanishi tushunilishi kerak. Bu xarajat markazi sifatida qaralayotgan bo'linma korxonada ishlab chiqarilayotgan ma'lum turdagi mahsulot (yoki uning qismi), alohida xarajat moddasi, texnologik jarayon, muayyan operatsiya yoki boshqa faoliyat turi bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Xarajatlarni ular bo'yicha guruhlash har ikkala xarajatlar va ularga ta'sir etuvchi omillar haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lish imkonini beradi. Xarajatlar markazini tanlash korxonada hal qilinayotgan muammolarning ahamiyatiga bog'liq va tahliliy xarajatlarni hisobga olish modelini belgilaydi. Korxonaning buxgalteriya hisobi tizimida bir nechta xarajat markazlarini yaratish haqiqatda xarajatlarni nazorat qilishni kuchaytiradi va tannarxni hisoblash obyektlariga



bilvosita ajratilgan xarajatlar ulushini kamaytiradi, bu esa tannarxning aniqligini oshiradi.

Zamonaviy avtomatlashtirish va kompyuter texnologiyalari darajasi yuqori bo'lgan sharoitda korxonada xarajatlar markazlarini ajratib ko'rsatish buxgalteriya jarayonlarini murakkablashtirmaydi. Aksincha, axborot tizimining samarasini oshirishga xizmat qiladi. Boshqaruv uchun xarajatlar haqida foydali qo'shimcha ma'lumot olish imkoniyatlari kengaytiriladi. Statistik usullardan foydalangan holda xarajatlar markazlari bo'yicha guruhlangan xarajatlarni o'rganish xarajatlarning qiymati va hatti-harakatlariga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlashga, alohida xarajatlar markazlariga xos bo'lgan va boshqalar uchun ahamiyatli bo'lmagan tendensiyalarni aniqlashga imkon beradi.

TADQIQOT MTODOLOGIYASI

Tadqiqotda ma'lumotlar korxonalarning moliyaviy hisobotlari, ishlab chiqarish xarajatlari to'g'risidagi ma'lumotlar va sohasiy statistik manbalardan to'plandi. Tahlil qilish uchun korrelyasion va regressiya tahlili, shuningdek, klaster tahlili kabi iqtisodiy-matematik usullar qo'llanildi. Xarajatlarning mahsulot tannarxiga ta'sirini o'lchash va omillarni aniqlash maqsadida dinamik qatorlar tahlili ham amalga oshirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Javobgarlik markazlari tomonidan xarajatlarni hisobga olish va tahlil qilish – bu korxonada tuziladigan joriy va kelgusi byudjet rejasida belgilangan ko'rsatkichlarning bajarilishini o'lchab borish va baholashga qaratilgan tizimdir. Shuningdek, u har bir bo'linma erishgan natijalarning rejadagi qiymatlarga muvofiqligini aniqlaydi. Agar javobgarlik markazi maqomi aniq belgilab qo'yilsa, rejada ko'zda tutilgan ko'rsatkichlardan har qanday og'ish nafaqat sodir bo'lgan joyda, balki mas'ul shaxs (menejer) darajasida ham qayd etiladi. Javobgarlik markazlari bo'yicha buxgalteriya hisobi va tahlil konsepsiyasi turli bo'linmalarda turli maqsadli funksiyalarni qo'llashga imkon yaratar ekan, korxonada moddiy rag'batlantirish tizimini samaraliroq tashkil qilishga ham yordam beradi. Bunday yondashuv, ayniqsa, korxonaning umumiy moliyaviy natijalarida turli bo'linmalarning hissasini aniq o'lchash va baholashda muhimdir. Korxona ichidagi bo'linmalarda "erkinlik darajasi" farq qiladi. Masalan, ishlab chiqarish bo'limi boshlig'iga mahsulot tarkibi, hajmi va xarajatlar tarkibini mustaqil belgilash huquqi berilishi mumkin.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda javobgarlik markazlari bo'yicha boshqaruv hisobini tashkil etishda eng avvalo ushbu markazlarning turlari va ularga xos xususiyatlarga e'tibor qaratish lozim. Maqsad – har bir bo'linma o'ziga tegishli faoliyatga doir xarajatlar va daromadlarni alohida umumlashtirish hamda yuzaga keladigan og'ishlarni shu bo'linmalar zimmasiga yuklashdir. Javobgarlik markazlari buxgalteriya hisobi amaliyotida boshqaruv tizimining muhim obyektlaridan biri bo'lib, asosiysi – nazoratni kuchaytirishdan ko'ra, xodimlarning o'z-o'zini boshqarishiga yordam berish vazifasini bajarishdir.

Don mahsulotlarini qayta ishlash korxonalari faoliyat ko'rsatish bo'yicha nizomlaridan kelib chiqib, "donni qayta ishlash, shuningdek, aholini boshqa turdagi oziq-ovqat mahsulotlari (non va non mahsulotlari, makaron, yormalar) bilan ta'minlashni"¹ ham amalga oshiradi. Bu faoliyat bilan korxona tarkibiga kiruvchi sho'ba korxonalar shug'ullanadi. Demak, segmentlar hisoboti muhim ahamiyat kasb etadi.

Donni qayta ishlash natijasida asosiy va qo'shimcha mahsulotlar olinadi.

Masalan, "bug'doyni qayta ishlash natijasida unni turli navlarini ishlab chiqarilishi, shuningdek, qo'shimcha mahsulot sifatida kepek, don aralashmasi, don chiqindisi va keraksiz chiqindilarni" olinishi mahsulot turlari bo'yicha tahlil o'tkazilishini talab etadi.

Professor B.Xasanovning ta'kidlashicha, "Biznes segmenti – bu korxonaning ma'lum qismini yoki nisbatan mustaqil bo'linmasini muayyan vakolatlar va mas'uliyat berish maqsadida ajratishdir"².

"Boshqaruv hisobi korxonaning tashkiliy tuzilmasini hisobga olgan holda, turli javobgarlik markazlari (biznes segmentlari) majmuidan tarkib topadi"³.

M.A.Vaxrushina boshqaruv tahlilini amalga oshirish uchun asosiy axborot manbai segmentlar hisoboti ekanligini ko'rsatib bergan. Uning bayon etishicha, "boshqaruv tahlili nafaqat iqtisodiy tahlilning bir turi, balki boshqaruv hisobining elementlaridan biridir. Boshqaruv hisobining obyekti hisoblangan biznes segmentlari, ularning o'tmishdagi va kelajakdagi natijalari boshqaruv tahlilining ham obyektidir. Segment – hisobot va prognoz ma'lumotlarini olish uchun ajratilgan boshqaruv hisobining asosiy axborot birligi hisoblanadi"⁴.

1 "Sho'rchidonmahsulotlari" AJ korxonasining Nizomi

2 B.A.Xasanov., Z.U.G'aniev., D.A.Muxammedova. Boshqaruv hisobi.-T.: «Iqtisod-Moliya», 2018.- 280 b. (6.245)

3 R.B.Xasanova., Boshqaruv hisobida transfert baho va segmentar hisobot uslubi, monografiya, -Angliya.: "Globe edit".2021.-153 b. (b.37)

4 Вахрушина М.А. Управленческий анализ: учебное пособие для студентов, обучающихся по спец. "Бухгалтерский учёт, анализ и аудит"/ -6-е изд., испр. – Москва: Омега-Л, 2010. – 399 с.



1-jadval. Don mahsulotlarini qayta ishlash korxonasida javobgarlik markazlari bo'yicha xarajatlarning segmentar hisoboti ming so'mda⁵.

T.r	Ko'rsatkichlar	I-III choraklar bo'yicha jami		Yil boshidan jami	
		Reja	Haqiqatda	Reja	Haqiqatda
1		2	3	4	5
1.	Don saqlash sig'implari (omborxona, elivatorlar)	956849	+36278	1245689	+48412
2.	Un ishlab chiqarish sexi	1446218	-24569	1638756	-29563
3.	Omuxta yem ishlab chiqarish sexi	765432	+19821	923165	+26518
4.	Sexlar bo'yicha jami	3168499	+31530	3807610	+45367
5.	Umumishlab chiqarish xarajatlari	168325	+3289	204516	+4981
6.	Korxona bo'yicha jami	3336824	+34819	4012126	+50348

1-jadval ma'lumotlari korxona segmentlari xarajatlarini qiyosiy tahlil qilishda va ularni kamaytirish yo'nalishlarini ishlab chiqishda alohida ahamiyatga ega. Segmentar hisobot boshqaruv hisobining ajralmas qismi bo'lib, u javobgarlik markazlari faoliyatini samarali boshqarish uchun daromadlar, xarajatlar va moliyaviy natijalar to'g'risida tuziladigan tezkor va joriy hisobot shakllarini o'z ichiga qamrab oladi.

Bizning fikrimizcha, korxonada javobgarlik markazlarini quyidagi talablarga mos holda shakllantirish lozim: ular korxonaning ishlab chiqarish va tashkiliy tuzilishiga mos bo'lishi;


javobgarlik markazlari doirasida faoliyat hajmini, xarajatlarni hisobga olish va taqsimlash uchun zarur asoslarni yaratish;

har bir javobgarlik markazi menejerining vakolatlari va javobgarlik doirasi aniq belgilanishi, menejer esa faqat nazorat qila oladigan ko'rsatkichlar uchun javob berishi;

har bir javobgarlik markazi uchun ichki hisobot shakllarini o'rnatish;

javobgarlik markazlari rahbarlarining o'tgan davr bo'yicha faoliyatni tahlil qilish va kelgusi davr rejalarini (byudjetlarini) ishlab chiqishda faol qatnashishi.

Korxonada ana shu markazlar doirasida xarajatlarni rejalashtirish, me'yorlashtirish va hisobga olish ishlari amalga oshirilishi zarur (1-rasm).



1-rasm. Ishlab chiqarish xarajatlarini markazlar doirasida boshqarish⁶


⁵ Tadqiqotlar natijasida muallif ishlanmasi.

⁶ Tadqiqotlar natijasida muallif ishlanmasi.



Yuqoridagi 1-rasm (matnda keltirilgan) bo'linmalar ichida xarajatlarni rejalashtirish imkonini beradi. Shundan kelib chiqib, korxonada xarajatlarni hisobini oqilona tashkil qilish maqsadga muvofiq. Javobgarlik markazlari bo'yicha boshqaruv hisobini joriy etish shuni ko'rsatadiki, har bir bo'linma faoliyati samaradorligini baholashda u olishi kutilayotgan foyda hajmini belgilab olish lozim. Bunday sharoitda foyda markazlarini barpo etish muhim o'rin tutadi.

Bizning fikrimizcha, javobgarlik markazlarini aniqlashda korxona texnologik tuzilmasini e'tiborga olish, uni gorizontaal va vertikal ko'rinishlarga ajratish zarur (2-rasm).



2-rasm. Javobgarlik markazlarining texnologik tuzilmasi⁷

Korxonani javobgarlik markazlariga bo'lish orqali:

har bir bo'linma faoliyatining xususiyatlarini inobatga olgan holda xarajatlarni boshqarishning aniq usullarini qo'llash;

korxonaning tashkiliy tuzilmasi bilan bog'liqlikni ta'minlash;

boshqaruvning barcha bosqichlarida xarajatlarni markazlashtirib nazorat qilish;

xarajatlarni, daromadlar va foydaning vujudga kelishi uchun mas'ul shaxslarni belgilash mumkin bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Korxonada xarajatlarni boshqarish tizimi samarali faoliyat yuritishi uchun u bir qator asosiy xususiyatlarga ega bo'lishi lozim. Eng avvalo, ushbu tizim shunday asoslarda tashkil etilishi kerakki, unda har bir menejer faqatgina o'zining to'g'ridan-to'g'ri nazorat qila oladigan ko'rsatkichlar uchun javobgar bo'lishi ta'minlansin. Bu yondashuv menejrlarning vakolatlari doirasida mas'uliyatni aniq belgilab, ularni qabul qilinadigan qarorlar uchun to'liq javob berishga undaydi. Bunday sharoitda menejrlarning harakatlari va qarorlari ko'proq mustaqil va samarali bo'ladi.

Xarajatlarni boshqarish tizimining yana bir muhim xususiyati — ichki hisobot hujjatlarining shaxsiylashtirilgan bo'lishidir. Har bir javobgarlik markazi yoki menejer uchun alohida shaklda tayyorlanadigan ichki hisobotlar boshqaruv qarorlarini tezkor va aniq qabul qilish imkonini beradi. Bunday hisobotlar menejerlar faoliyatini baholash, resurslardan foydalanish darajasini aniqlash, rejalashtirish va tahlil qilish jarayonlarida muhim axborot manbai bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, rahbarlar va menejerlarning o'tgan davr hisobotlarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi davr uchun reja va strategiyalarni ishlab chiqishda bevosita ishtirok etishi xarajatlarni boshqarish tizimining muhim

⁷ Tadqiqotlar natijasida muallif ishlanmasi.



xususiyatlaridan biridir. Bu esa tizimning interaktivligini ta'minlaydi va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda barcha darajadagi rahbarlarning faolligini oshiradi.

Korxonani javobgarlik markazlariga ajratishda esa qator muhim shart va mezonlarga amal qilish zarur. Eng avvalo, faoliyat hajmini o'lchash va xarajatlarni to'g'ri taqsimlash mezonlari aniq va puxta belgilab olinishi lozim. Bu orqali xarajatlarning qaysi markaz yoki bo'linma faoliyati natijasida yuzaga kelgani aniq aniqlanadi.

Shuningdek, har bir javobgarlik markazining boshida o'z vakolatlari va mas'uliyatiga ega bo'lgan malakali menejer faoliyat yuritishi talab etiladi. Bu menejerga berilgan vakolatlar doirasida ma'lum bir resurslarni boshqarish va tegishli xarajatlarga javob berish majburiyati yuklatiladi. Shu bilan birga, har bir markaz uchun vakolat va mas'uliyat chegaralari aniq ko'rsatib berilishi zarur, chunki bu keyingi tahlil va monitoring jarayonlarida muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni. 2017-yil 7-fevral, PF-4947-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan "Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi nizom". www.lex.uz.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. <http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-majlisga-murojaatnomasi-28-12-2018>.
4. Raximov M.Y., Kalandarova N.N. Moliyaviy tahlil. Darslik. – T.: Iqtisod-Moliya, 2019. – 736 b.
5. Pardaev A. va boshqalar. Boshqaruv tahlili. – T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2005.
6. Shog'iyosov T.Sh. Kompleks iqtisodiy tahlil. Darslik. – T.: Fan-texnologiya nashriyoti, 2012.
7. Xasanov B.A., Xoshimov A.A. Boshqaruv hisobi. Darslik. – T.: Yangi nashr, 2011. – 312 b.
8. Sagdillayeva Z., Yuldasheva U., Xamidova S. Iqtisodiy tahlil. Darslik. – T.: Iqtisod-Moliya, 2023. – 445 b.
9. Khamidova S.Ya. Product Costing of Fixed and Variable Costs Impact Analysis. European Journal of Business Startups and Open Society. <http://innovatus.es/index.php/ejbsos>.
10. Khamidova S.Ya. "Xalqaro standartlar asosida ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish". Muhandislik va Iqtisodiyot, 2024, №4, 418-b.
11. Khamidova S.Ya. "Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida moliyaviy javobgarlik markazlarining boshqaruv hisobi va nazoratini tashkil etish". Biznes-Ekspert iqtisodiy ilmiy-amaliy jurnal. – Toshkent, 2023-yil, №11 (191).
12. Khamidova S.Ya. "Zarubejnyy opyt organizatsii upravlencheskogo ucheta". Moliya, UDK: 657.01, 2024, №5, 12–20-b. www.tfi.uz/Issues/Jmoliya.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
